

Shodiyarova Dilrabo Mamatovna
Samarqand davlat pedagogika instituti
2-bosqich magistranti
dilraboshodiyarova88@gmail.com

Ilmiy rahbar: PhD, Zaripov Otabek Murodullayevich

YETIM VA OTA-ONA QARAMOG'ISIZ QOLGAN BOLALARDA MUSTAQIL HAYOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarda hayotiy ko'nikmalarni shakllashtirishning samarali usullari bayon qilingan. Shuningdek, maqolada yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarda mustaqil hayot ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, amaliy mashg'ulotlar, kasbiy yo'naltirish, ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash va mentorlik tizimi bolalarning mustaqil hayotga tayyorgarligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: mustaqil qaror, hayotiy ko'nikma, ijtimoiy munosabat, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar, ijtimoiy moslashuv, mustaqil hayot ko'nikmalari, ijtimoiy-pedagogik yordam, kasbiy yo'naltirish.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ЖИЗНИ У ДЕТЕЙ-СИРОТ И ДЕТЕЙ, ОСТАВИХСЯ БЕЗ ПОПЕЧЕНИЯ РОДИТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье описываются эффективные методы развития жизненных навыков у сирот и детей, оставшихся без родительской опеки. Также анализируются теоретические и практические аспекты развития навыков самостоятельной жизни у сирот и детей, оставшихся без родительской опеки. По результатам исследования, важными факторами повышения готовности детей к самостоятельной жизни являются практическая подготовка, профессиональная ориентация, социально-педагогическая поддержка и наставничество.

Ключевые слова: самостоятельное принятие решений, жизненные навыки, социальные отношения, дети, оставшиеся без родительской опеки, социальная адаптация, навыки самостоятельной жизни, социально-педагогическая помощь, профессиональная ориентация.

EFFECTIVE METHODS OF FORMING INDEPENDENT LIFE SKILLS IN ORPHANS AND CHILDREN LEFT WITHOUT PARENTAL CARE

Abstract. This article describes effective methods for developing life skills in orphans and children left without parental care. The article also analyzes the theoretical and practical aspects of developing independent life skills in orphans and children left without parental care. According to the results of the study, practical training, vocational guidance, socio-pedagogical support and mentoring are important factors in increasing children's readiness for independent life.

Keywords: independent decision-making, life skills, social relationships, children left without parental care, social adaptation, independent life skills, socio-pedagogical assistance, vocational guidance

Kirish.

Bugungi kunda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu toifadagi bolalar nafaqat ta'lim olish, balki kelajakda mustaqil hayot kechirish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni ham egallashlari lozim. Mustaqil hayotga tayyorlash jarayoni ularning ijtimoiylashuvi, shaxs

sifatida shakllanishi va jamiyatda munosib o'rin egallashida muhim omil hisoblanadi. Ota-ona mehridan mahrum bo'lgan bolalarda hayotiy tajribaning yetarli darajada shakllanmaganligi, qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklar, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etish ko'nikmalarining sustligi kuzatilishi mumkin. Shu sababli ularda mustaqil hayot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tizimli pedagogik ishlarni tashkil etish dolzarb masala sanaladi.

Farzand–nafaqat oilaning balki, jamiyatning quvonchi va kelajak tayanchidir. Bugungi kunda farzandlar kelajagi haqida mas'uliyat bilan yondashmayotgan ota-onalarni ko'rayotganimiz va ular tirik yetimlar, ijtimoiy yetimlikni sonini oshirishi bilan nafratimizga sabab bo'lmoqda. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar har qanday sababga ko'ra ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar bo'lib hisoblanadi. Har qanday jamiyatning taraqqiyoti yosh avlodning barkamol rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar jamiyatning alohida e'tibor talab qiladigan qatlamlaridan biridir. Ushbu toifadagi bolalar ko'pincha oilaviy tarbiya muhitidan mahrum bo'lganliklari sababli mustaqil hayotga tayyorlanishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu bois ularda kundalik hayotiy, iqtisodiy, ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Mustaqil hayot ko'nikmalari insonning kundalik ehtiyojlarini qondirish, qaror qabul qilish, moliyaviy mablag'larni boshqarish, mehnat faoliyatini tashkil etish va jamiyat bilan samarali muloqot qilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Muhokama va natijalar

Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar — bu ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan bolalar toifasi bo'lib, ularning huquqlari davlat tomonidan alohida himoya qilinadi. Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarda mustaqil hayot ko'nikmalarini shakllantirish boqimandalik kayfiyatini yo'qotish, ularni jamiyatga to'g'ri moslashtirish va kasb-hunarga o'rgatishni talab qiladi. Samarali usullar quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi: [1, 2] Ota-ona qaramog'isiz qolgan bola — ota-onasi tirik bo'lsa ham, turli sabablarga ko'ra ularning tarbiyasi va g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan 18 yoshga to'lmagan shaxsdir.

Bunday holatlarga quyidagilar kiradi:

- ✓ Ota-onaning ota-onalik huquqidan mahrum etilishi.
- ✓ Ota-onaning muomalaga layoqatsiz deb topilishi.
- ✓ Ota-onaning bedarak yo'qolgan deb e'lon qilinishi.
- ✓ Ota-onaning ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni o'tashi.
- ✓ Ota-onaning uzoq muddat davolanishi yoki og'ir kasalligi.
- ✓ Ota-onaning bolani tarbiyalashdan bosh tortishi.

Shunday qilib, **har bir yetim bola ota-ona qaramog'isiz qolgan bola hisoblanadi, lekin har bir ota-ona qaramog'isiz qolgan bola yetim bo'lavermaydi.** Bu tushunchalar bolalarning huquqiy maqomini aniqlash va ularga davlat tomonidan ko'rsatiladigan yordam choralari belgilashda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda yetimlik muammosi va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar muammosi nafaqat o'rta osiyo davlatlarida balki, butun dunyoda o'rganilayotgan va ko'plab muhokamalarga va tajribalarga sabab bo'layotganligini kuztishimiz mumkin. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya 1990-yil 2-sentabrda kuchga kirgan. O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 9-dekabrda qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtiri shchora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 14-noyabrdagi PF-185-son Farmoniga muvofiq yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Maxkamasi 2025-yil 5-may 294-son qarorini qabul qildi. [1] Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ijtimoiy holati va turmush sharoitlari "inson" markazlari tomonidan kompleks baholanadi hamda baholash natijalariga ko'ra bolaning ijtimoiy maqomi belgilanadi.

Mustaqil hayot ko'nikmalarini shakllantirishning samarali usullari

1. Faoliyat turlari orqali rivojlantirish.

Turli yoshdagi bolalarda mos faoliyat turlari (o'yin, o'qish, mehnat) orqali rivojlantirish. Nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish eng samarali

usullardan biridir. Bolalarni ovqat tayyorlash, kiyim-kechaklarni parvarish qilish, xonani tozalash kabi kundalik faoliyatlarga jalb etish ularda mas'uliyat hissini shakllantiradi.

2. Ta'limiy yoki psixologik trening va interaktiv metodlardan foydalanish.

Bolalarni ijtimoiy faolligini oshirishga va ijtimoiy rollarini anglashga ko'maklashadi. Rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar, keys-stadilar va trening mashg'ulotlari bolalarda real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.[4]

Masalan:

- Muloqot ko'nikmalari bo'yicha suhbatni modelashtirish;
- Turli hayotiy vaziyatlarda o'zini tutish va konfliktlarni oldini olishni o'rganish;
- Shaxsiy imkoniyatlaridan foydalanish ko'nikmasini oshirish.

3. Iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishda ko'maklashish.

Mustaqil hayotga tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi moliyaviy savodxonlik hisoblanadi. Bolalarga:

- daromad va xarajatlarni rejalashtirish;
- mavjud imkoniyatdan foydalanish;
- tejamkorlik;
- bank kartalaridan foydalanish;
- moliyaviy xavfsizlik qoidalarini bilish ko'nikmalarini o'rgatish zarur.


4. Kasbiy yo'naltirish va mehnat tarbiyasi

Bolalarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash asosida ularga kasb tanlashda ko'maklashish muhimdir. Kasbiy yo'naltirish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- kasb egalari bilan uchrashuvlar;
- ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar;
- kasbiy sinov mashg'ulotlari;
- amaliyot dasturlari.

5. Ijtimoiy moslashuvni rivojlantirish


Bolalarni jamiyat hayotiga faol jalb qilish ularning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Mustaqil hayot ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida pedagog va tarbiyachilar yetakchi o'rin tutadi. Ularning vazifalari quyidagilardan iborat:



Pedagogik jarayonda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Hozirgi jadallik bilan rivojlanayotgan kunda ota-onalar qaramog'isiz qolgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu toifadagi bolalar nafaqat ta'lim olish, balki kelajakda mustaqil hayot kechirish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni ham egallashlari lozim. [6]Mustaqil hayot ko'nikmalari quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:



Xulosa

Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarda mustaqil hayot ko'nikmalarini shakllantirish ularning kelajakdagi muvaffaqiyatli hayoti uchun muhim omildir. Amaliy ta'lim, kasbiy yo'naltirish, psixologik qo'llab-quvvatlash, mentorlik tizimi hamda ijtimoiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi. Shu bois bolalarni mustaqil hayotga tayyorlashga qaratilgan kompleks yondashuvni takomillashtirish va amaliyotga keng joriy etish zarur. Bugungi kunning baxtli, savodli va sog'lom fikrlovchi bolasi ertangi kunning jamiyati ravnaqidir. Xulosa o'rnida shu narsani ta'kidlab o'tish lozimki, shakllanib kelayotgan har bir bola mustaqil hayotiy ko'nikmalarni chuqur anglagan bo'lishi lozim. Rivojlanib borayotgan hozirgi globallashtirish jarayonida raqobatbardosh kadrlarga ehtiyojning balandligi sabab – ba'zi ota-onalar o'zlarining tom ma'nodagi ota-onalik mas'uliyat va burchlarini unutib qo'yib, ularni qarovsiz qoldirib, ba'zida esa tirik bo'la turib yetimlikka mahkum qilib qo'yidilar. Har birimiz pedagog va fuqaro sifatida yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar taqdiriga befarq bo'lmasak shundagina jamiyat taraqqiyotida ularning ham o'rni bo'ladi. Har bir pedagog tarbiyachi o'z oldiga jamiyatga keltiradigan foydasini aqlan his qilib, shu asosda qadamini bossa – albatta, yuqorida kunning muhim anonsiga chiqqan bolalarning yetimligi va qarovsizligi masalasi o'z yechimini topadi. Zero, "...buyuk kelajak sog'lom firlaydiga ezgu amallar bajaradigan yosh avlod taraqqiyoti bilan bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 432 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 14-noyabrda PF 185-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
5. Avliyakov N.X. *Pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Mavlonova R., To'rayeva O. *Pedagogika*. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
7. Karimova V.M. *Ijtimoiy psixologiya*. – Toshkent: Fan, 2018.
8. Education" илмий журналининг ISSN 2181-0842 VOLUME 2, ISSUE 4. Стр.522-527
9. Арипова А.Х. Социально-культурный подход к реализации процесса инклюзивного образования. sotsialno-kulturnyi-podkhod-k-realizatsii-protssessainklyuzivnogo-obrazovaniya.html.
10. .А..Х.Арипова .Имплементация зарубежного опыта сиротам и детям оставшихся без попечения родителей для поиска своего места в жизни.
11. 8. <http://www.socialworker.com/> . <http://socialworkpodcast.com/>